
“KONSTITUTSIYA MENGA NIMA BERADI?” DEGAN SAVOLGA SIZ QANDAY JAVOB BERGAN BO’LARDINGIZ?

Hech kim uy-joyga unda yashovchi shaxslarning xohishiga qarshi kirishi mumkin emas. Uy-joyga kirishga, shuningdek unda olib qo’yishni va ko’zdan kechirishni o’tkazishga faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda yo’l qo’yiladi. Uy-joyda tintuv o’tkazishga faqat qonunga muvofiq va sudning qaroriga asosan yo’l qo’yiladi.

Konstitutsiyaning 32-moddasiga binoan qonuniy asoslarda O’zbekiston Respublikasi hududida bo’lib turgan har kim mamlakat bo’ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tanlash huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno.

Har kim O’zbekistondan tashqariga erkin chiqish huquqiga ega, bundan qonunda belgilangan cheklovlar mustasno. O’zbekiston Respublikasi fuqarosi O’zbekistonga to’sqinliksiz qaytish huquqiga ega.

Konstitutsiyaning 33-moddasig ko’ra har kim fikrlash, so’z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega.

Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega.

Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo’lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog’lig’ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo’riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo’lgan doirada yo’l qo’yiladi.

Konstitutsiyaning 35-moddasiga binoan hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo’l qo’yilmaydi.

Va nihoyat Asosiy qonuning 50-moddasiga ko’ra har kim ta’lim olish huquqiga ega. Bu juda ham muhim huquq.

Ta’limsiz jamiyat rivojlana olmaydi. Ta’lim orqali bilimlar shakllanadi. Bilimli inson o’z yo’lini onson topadi.

Shu bois, davlat uzluksiz ta’lim tizimi, uning har xil turlari va shakllari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari rivojlanishini ta’minlaydi.

Davlat maktabgacha ta’lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Davlat bepul umumiy o’rta ta’lim va boshlang’ich professional ta’lim olishni kafolatlaydi. Umumiy o’rta ta’lim majburiydir.

Maktabgacha ta’lim va tarbiya, umumiy o’rta ta’lim davlat nazoratidadir.

Ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bo’lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim va tarbiya ta’minlanadi.

Sizlarga ma’ruzam boshida savol bergandim. Keling, ma’ruzamni savol va muhokama bilan yakunlasak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib siz “Konstitutsiya menga nima beradi?” degan savolga siz qanday javob bergan bo’lardingiz?

E’tiboringiz uchun rahmat!